

Samiyev Alisher Saidniyoz o'g'li, Navoiy davlat universiteti, tadqiqotchi
E-mail samiyevalisher40@gmail.com



XI–XIII ASRLARDA O'RTA OSIYODA TARIXSHUNOSLIK VA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI

<https://zenodo.org/records/19906994>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI–XIII asrlarda O'rta Osiyoda tarixshunoslikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mazkur davrda faoliyat yuritgan tarixchilar, ularning asarlari hamda tarixiy bilimlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, siyosiy jarayonlar, davlatlararo munosabatlar va madaniy muhitning tarixshunoslik rivojiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijasida ushbu davr tarixiy merosining bugungi tarix fanidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tarixshunoslik, tarixiy bilimlar, O'rta Osiyo, Xorazmshohlar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, manbalar, tarixiy meros

РАЗВИТИЕ ИСТОРИОГРАФИИ И ИСТОРИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XI–XIII ВЕКАХ

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития историографии в Центральной Азии в XI–XIII веках. Освещаются деятельность историков данного периода, их труды, а также роль исторических знаний в общественном развитии. Кроме того, раскрывается влияние политических процессов, межгосударственных отношений и культурной среды на развитие историографии. В результате исследования обосновывается значение исторического наследия данного периода для современной исторической науки.

Ключевые слова: историография, исторические знания, Центральная Азия, Хорезмшахи, Саманиды, Караханиды, Газневиды, Сельджуки, источники, историческое наследие.

THE DEVELOPMENT OF HISTORIOGRAPHY AND HISTORICAL KNOWLEDGE IN CENTRAL ASIA IN THE 11TH–13TH CENTURIES

Abstract. This article analyzes the stages of formation and development of historiography in Central Asia during the 11th–13th centuries. It highlights the activities of historians of this period, their works, and the role of historical knowledge in the development of society. It also examines the influence of political processes, interstate relations, and the cultural environment on the development of historiography. The study demonstrates the significance of the historical heritage of this period for modern historical science.

Keywords: historiography, historical knowledge, Central Asia, Khwarazmshahs, Samanids, Karakhanids, Ghaznavids, Seljuks, sources, historical heritage.

Kirish. X asr O'rta Osiyo tarixini o'rganishda shubhasiz Xorazm davlatini alohida o'rni bor. Xorazm davlati bu davrda har tomonlama o'ziga xos ravishda rivoj topdi va mintaqada o'z ijtimoiy-siyosiy xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Xorazmshohlar davlati tarixshunosligini o'rganish, ayniqsa Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topganidan so'ng jonlanib ketdi. Bu sohada Azamat Ziyov, Ozod Masharipov, Matyoqub Maniyozov, Abdulla Sotliqov va Anatoliy Sagdullaev va boshqalarning xizmatlari samarali bo'ldi. Shu ma'noda davlatchiligimiz ibtidosi qaror topgan ko'hna Xorazmda XI-XIII asr boshlarida kechgan siyosiy jarayon va uning tamom mintaqaga ta'siri katta qiziqish uyg'otadi. Bag'dod xalifaligining sobiq hududida tashkil topgan eng yirik davlatlardan biri Somoniylar davlati (819-999-yy.) edi. X asr oxirlariga kelib feodal tarqoqlik yanada kuchaydi. Hamadon, Isfahon va Rayda Buvahiylar, Tabaristonda va Jurjonda Ziyoriylar mustaqillikka erishdilar. 962-yilda Somoniylarning G'aznidagi noibi Alptakin ham mustaqillik e'lon qildi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, shuningdek, Chag'oniyon va Xorazm ham somoniylarga itoat etishdan bosh tortdilar. Xorazmshoh deyilganda, aslida, Xorazm vohasida hukmronlik qilgan sulola vakili tushuniladi, ya'ni Xorazm hukmdori (shohi) ma'nosini anglatadi. Uzoq asrlar davomida bu viloyatda bir qator sulolalar xorazmshohlar unvoni ostida faoliyat ko'rsatganliklarini bilamiz. Masalan, IV-X asrlarda afrig'iylar xonadoni, 995-1017-yillarda Ma'muniylar (Ma'mun I, Abulhasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041-yillarda esa oltuntoshiylar (Oltintosh, Xorun, Xandon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursisida o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, mamlakat, mintaqa miqyosida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushtegeniylardir (1097-1231)[1]. 1017-yili Xorazmni Mahmud G'aznaviy bosib oldi, o'zining bosh hojibi Oltintoshni xorazmshoh unvoni bilan Xorazm hokimi etib tayinladi. 1043-yili Xorazm saljuqiylar davlatiga qo'shib olindi. Saljuqiylarning Xorazmdagi noibi Otsiz xorazmshoh saljuqiylarning zaifligidan foydalanib, mustaqil siyosat yurgiza boshladi va Xorazmda yangi sulolaga asos soldi. 1172-yili Xorazmga qoraxoniylar bostirib kirdi. Otsiz xorazmshohning nabirasi Takash 1187-yili Nishonpurni, 1192-yili Rayni, 1193-yili Marvni bosib oldi, 1194-yili saljuqiylar sultoni To'g'rol II ni yengdi. Takash xorazmshoh davrida (1172-1200) Eronning Sharqiy qismi Xorazmga qo'shib olindi. Uning o'g'li Muhammad Xorazmshoh davrida Xorazm Yaqin Sharqda eng qudratli davlatga aylandi. Xorazmga Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan fors qo'ltig'igacha, Kavkazdan Hindukush tog'larigacha bo'lgan hudud qarardi[3]. Xorazm Xitoy, Mo'g'uliston, Tibet, Hindiston, Yaqin Sharqdagi mamlakatlar, Rus va Volga bo'yidagi shaharlar bilan savdo-sotiq qilardi. Bu haqda tarixchi olim Ozod Masharipov «Xorazm tarixidan sahifalar» (Toshkent, 1994), Matyoqub Matniyozov va Abdulla Sotliqov «Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm» (Urganch, 1999-yil), o'z asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tadilar. Ularning qimmatli ham shundaki, bugungi zamon nuqtai-nazaridan tarixshunosligimizni boyitganlar. Ammo, Anushteginlarning turkiy qabilalardan kelib chiqqanligi, uning o'g'uz qabilalarining Bekdili urug'idan ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar fors tarixchisi Rashiduddinining asarlarida keltirilgan[2]. Xullas, agar O'rta Osiyoning somoniylar va Xorazmshohlar davri tarixi mufassal o'rganilgan bo'lsa,

qoraxoniylar davri tarixi hali yetarli o'rganilmagan. Yozma manbalar siyosiy voqealar va qoraxoniylar davlatining ichki tuzilishi xususida uzuq-yuluq ma'lumotlar beradi. Tarixchilar doimo tarixiy manbalar topilib qolishidan umidvor edilar va qoraxoniylar chiqargan tanga va boshqa manbalarga tayanardilar. Bir misol keltiramiz. XII asrning ikkinchi choragi boshlarida qoraxoniylarning qudratli davlati o'z qo'llarida Bolasog'un shahri bilan birga Yettisoydan to Enisey (Enasoy) daryosining shimoli-sharqiy qismigacha bo'lgan hudud va xalqni tutib turardi. Musulmon manbalarida bu xalq qoraxitoylar deb ataladi.-1137-yili qoraxoniylar Xo'jand yaqinida G'aznaviy Ma'sudni tor-mor etishdi. 1141 yilning 9-sentyabrda Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida saljuq-qoraxoniylarning lashkari to'la tor-mor etilib, saljuqiylar sultoni Sanjar va Mahmud chekindi. Qoraxitoylar Buxoro va Markaziy Movarounnahrni egalladilar. O'rta Osiyoda siyosiy kuchlar nisbati o'zgardi. Qoraxitoylar saljuqiylardan farqali o'laroq, qoraxoniylar sulolasini yo'q qilishmadi. Qoraxoniylar qoraxitoylarning vassaliga aylandilar. Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangdan so'ng Samarqandda biroz vaqt qochib ketgan Qoraxoniy Mahmudning tug'ishgan ukasi hukmdorlik qildi. Farg'ona esa Shimoliy qoraxoniylar oilasi qo'lida edi. 1150-yilda Farg'onadagi qoraxoniylar sulolasi Samarqandni ham mustahkam egalladi. Farg'ona va Samarqand birlashtirilgan bo'lsada, Samarqand davlat poytaxti hisoblanar, Samarqand hokimi nomiga boshliq edi[5]. **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu mavzuni yoritishda O'rta Osiyo tarixshunosligi va XI–XIII asrlar siyosiy hamda madaniy jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar mazmuni va yondashuvi jihatidan bir-birini to'ldiradi. Jumladan, T. Saidqulovning asarida O'rta Osiyo tarixshunosligi shakllanish bosqichlari tizimli ravishda yoritilib, tarixiy bilimlarning ilmiy asoslari tahlil qilingan. A. Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asari esa G'aznaviylar davri siyosiy tarixini bevosita guvohlik asosida yoritishi bilan muhim birlamchi manba hisoblanadi va davr tarixiy jarayonlarini chuqur anglashga imkon beradi. B. Ahmedov hamda A. Ziyovning asarlarida O'zbekiston davlatchiligi va tarixiy jarayonlarning umumiy rivojlanish qonuniyatlari ochib berilib, tarixshunoslikning milliy yondashuvi shakllantirilgan. A. Sagdullaev va hammualliflar tomonidan yozilgan ishda esa davlat va jamiyat taraqqiyoti tizimli tarzda tahlil qilinib, siyosiy tuzilmalar va tarixiy jarayonlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Qoraxitoylarning 1141-yilgi g'alabasi saljuqiylarni zaiflashtirib tashladi. Saljuqiylar mag'lubiyatining yana bir omili Xorazmning siyosiy markaz sifatida ko'tarilib chiqqani bo'ldi. Xorazmni saljuqiylar hukmronligidan ozod etish uchun izchil kurashganlardan biri Qutbiddin Muhammad Otsizning o'g'li (1127-1156 y.)edi. Otsiz bo'lajak xorazmshohlarning buyuk davlati asoschisi edi. (Eron saljuqlari XII asr o'rtalaridan boshlab nomigagina hukmron edilar. 1156-yili Saljuqiylar davlati sultoni Sanjar uch yillik asirlikdan so'ng poytaxt Marvga qaytib keldi va bir yildan so'ng vafot etdi, Uning o'limidan so'ng fors va Ozarbayjonda mustaqil davlatlar vujudga keldi. Xuroson ham mustaqil davlat bo'lib tanildi. Xalifalikning markazi Bag'dod o'z hokimiyatini tikladi. Bu jarayon xorazmshohlar mavqeini kuchaytirdi. Xorazmshoh Alovuddin Takash (1172-1200 y) qoraxitoylarga soliq berishdan bosh tortdi. U o'lpon yig'ish uchun Xorazmga kelgan qoraxitoylar elchisini qatl ettirdi. Bir pecha bor bo'lgan janglar natija bermadi. Faqat 1196-

yilgi Xorazm va Bag'dod xalifaligi o'rtasida bo'lgan jang xorazmliklar g'alabasi bilan tugadi. Biroq, xalifalik dindorlarga suyanardi va shu bois Takash jangchilari yordamida keng hududlarga ta'sirini kuchaytirishga urindi. Lekin, mamlakat ichida o'ziga mustahkam tayanch topa olmadi. SHunga qaramay, O'rta Osiyo xalqlarining bu davr tarixi mo'g'ullar bosqini arafasi davri sifatida O'rta Osiyodagi XII asr oxiri XIII asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolni qisqa bo'lsada, yorqin tasvirlaydi[6].

Takashning munshiysi (shaxsiy kotibi) Muhammad Bag'dodiy (At-tasviri ila tarassul) (Muhim nomalar bitish yo'l-yo'riqlari) asarida o'sha davrdagi ahvolni tasvirlaydi va Xorazmshoh Takashning Sirdaryo viloyati noibi Jaidga topshirig'ini keltiradi. Unda shoh noibiga aholining turli tabaqalari bilan to'g'ri munosabatlarni quyidagicha o'rnatishni buyuradi:

1. Sayidlar (Muhammad avlodidan) kamchilik ko'rmasligi, ularning ehtiyoji va tabarrukligi darajasidan kelib chiqqan holda ta'minlanishlari lozim;

2. Imom va ulamolar qonunlardan kelib chiqilgani holda sovg'asalom va turli imtiyozlarga sazovor etilishlari lozim;

3. Qozi va boshqaruvchilar qonunga rioya etib, adolatni talab qilishlari kerak;

Bu asarning to'la tavsifini birinchi bo'lib tarixchilardan A.Semyonov bergan Niso viloyati bilan bog'liq bir qator hujjatlarni tarixchilik va tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etadi. Niso viloyati g'uz feodallari mavqei kuchli bo'lgan xorazmshohlar davlatining janubiy hududlari hayotida katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Xorazm shohi Takash, Muhammad Bag'dodiyning guvohlik berishicha, g'uz urug'i yetakchilaridan biri To'g'on shohga viloyatning bir necha katta tumanlariga to'la xo'jayinlik qilish huquqini berganini yozadi. Bu yorliqqa asosan bu joylardagi dindorlar, qozi, ulamolar, boylar, lashkarboshilar, yer egalari va boshqa tabaqa kishilari unga bo'ysunardi. Bu hujjatda, shuningdek, ayollar nomusi, aholining mulki va hayotini, mol-mulki xavfsizligini himoya qilish va boshqa tadbirlarni qo'llashga ham chaqiriladi. Bu yerda bizning e'tiborimizni manbaning yoshi 700 yil atrofida ekani tortadi va uni o'rganishga jiddiy munosabatda bo'lish zarur. Biroq hanuzgacha tarix fani bunday tadqiqotga ega emas¹. XI-XIII asr boshida O'rta Osiyoda tovar-pul munosabatlari juda rivojlanganligi ma'lum. Bu jarayon O'rta Osiyoning eng chekka, xususan tog'li tumanlarini ham qamrab olgan edi. Bu O'rta Osiyo xalqlari madaniyati ahvoliga ham ta'sir ko'rsatdi. Bizgacha XI-XIII asr boshiga taalluqli moddiy va ma'naviy madaniyatning anchagina tarixiy-madaniy yodgorliklari etib kelgan. Ular orasida hashamatli me'morlik yodgorliklari alohida o'rin egallaydi.

Bu davrning buyuk davlatlaridan yana biri G'aznaviyalar davlati bo'lib, 962-yil somoniylar sarkardasi Alptakin G'azna shahrini bosib olib, u yerda g'aznaviyalar sulolasiga asos solgan. Bu tarixnavislikka G'aznaviyalar devonida 25 yillik davlat xizmati bilan Abul Fayzi Bayhaqi o'zining «Mas'ud tarixi» yoki «Tarixi Bayhaqiy» asari bilan asos soldi[8]. Mahmud g'aznaviyning ulkan davlati markaziy davlatining vujudga kelishi fan va madaniyatning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. G'aznaviyalar davrida arab tili keng quloq yozdi. G'aznaviyalar devonida avval dariy tilida ish yuritilardi. Keyin arab tili

kiritildi. Oqibatda fors tiliga arab tili unsurlarining kirishiga ta'sir ko'rsatdi. Mahmud g'aznaviy o'z saroyi tevaragiga shoiru yozuvchilarni, tarixchi va boshqa ilm ahllarini to'plagan edi. Saroyda qasida janri rivojlana bordi. Balxlik Abdulqosim Hasan ibn Ahmad Unsuriy (X asrning 60-yillarida tug'ilib, 1039-yilda vafot etgan) qasida ustasi bo'lib, u murakkablashgan ritorik obrazlarga boy qasidachilikning yangi uslubi asoschisi edi. Abdulhasan Ali Faruhiy (1038 yilda vafot etgan) va Abdulxoji Ahmad Manuchehriy (1041 yilda vafot etgan) ko'zga ko'ringan saroy yozuvchi va shoirlari edilar. Ular asosan somoniylar davri an'analarini davom ettirishdi. G'aznaviylar davrining buyuk tarixchisi Abul Fazl Bayhaqiy (995-1077 yy) 30 jildli fors-tojik tilidagi tarixiy asar muallifidir. Bu qomusiy asardan bizgacha Sulton Ma'sudning podshohligi davri va o'sha davr voqealari tasvirlangan bir necha titilgan, chala jildlar saqlanib qolgan, xolos. Ular «Ma'sud tarixi» yoki «Tarixi Bayhaqiy» deb ataladi[4]. Akademik V.Bartol'd yozadi: «Abul-Fazl Muhammad Husayn Bayhaqiyning asari musulmon tarixiy adabiyotida alohida o'rin tutadi». Abul-Fazl'Bayhaqiy (taxminan 994-1079 yy) davr taqozosi bilan tarixshunoslikda qadimdan shakllanib kelgan an'analar doirasidan chiqolmas edi. Biroq, shunga qaramay u o'sha davr xususida to'laroq ma'lumot berishga harakat qilgan. «Mening niyatim odamlarga sulton Ma'sud haqida hikoya qilib berishdangina iborat emas, chunki ular bu voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar va bilurlar. Mening maqsadim munosib yilnoma bitish va ulug'vor imoratni shunday yuksaklikka ko'tarishki, toki u haqdagi xotiralar asrlar so'ngida xam so'nmasun. Yolg'onga o'xshash bir narsani bitish no'rin bo'lur erdi» Demak, o'sha davrdagi mavjud tarixchilik uni qanoatlantirmagan va u odatdagi qonun-qoidalarni buzib, tarixchilikka bir qator yangiliklar kiritgan. Va bu uning asarini oldingi asarlardan ancha yuqoriga ko'taradi. O'zigacha bo'lgan tarixshunoslarga baho berar ekan, Bayhaqiy yozadi: «Boshqa yilnomalarda bunday qamrov yo'q, chunki ular voqealar haqida jo'n fikrlaydilar va juda kam qismi haqida ma'lumot beradilar. Kamina esa bu asarni bitar ekanman, tarixiy to'liq bayon qilmoqchiman, toki yuz bergan hodisalardan hech qaysisi ochilmay qolmasin»[2]. Bu bilan u nafaqat tarixchilik doirasini kengaytirib, unga yangi mazmun kiritdi, balki unga yangi shakl ham baxsh etdi. Bayhaqiyning yuqorida keltirilgan so'zlaridan ko'rinib turibdiki, u o'sha davr qoidasiga kura yozish odat bo'lmagan voqea hodisalarni ham mufassal yoritgan. Shuning uchuy ham Bayhaqiyning «Tarixi» da voqea-hodisalarning oldingi tarixchilardagi kabi quruq aytib o'tilishi yo'q. Aksincha, asardagi unvonli mashhur zotlar ko'z oldimizda jonsiz qo'g'irchoqlar kabi emas, balki o'z kiziqishlari, hissiyotlari, kamchiliklariga ega jonli tarixiy shaxslar bo'lib gavdalanadi. Bayhaqiy tarixan etilgan yirik hodisalarga bevosita turtki va sabab bo'luvchi, bunday qaraganda arzimmas mayda fakt va holatlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi[3].

G'aznaviylar devonidagi 25 yillik davlat xizmati muallifni ko'plab tarixiy voqealarning guvohiga aylantirdi. Uning qo'li-dan qanchalab diplomatik, elchilar bilan bo'lgan maxfiy shifr-langan yozishmalar, noiblar va boshqa xufya va noxufyalar bilan bo'lgan yozishmalar o'tgan. «Men o'zim xalifaga, Turkiston xonlari va beklarga yuboriladigan nomalarni oqqa ko'chirar, maxfiy axborotlarni o'zim echardim. Bu uning asarini xolis, ishonchli, obro'li manbaga aylantirdi va unga keyingi asr tarixchilari ko'p bora murojaat etishardi, deb yozadi A. Arends. Ilgari muallifning nomini ko'rsatmay ko'chirma olishardi, Bugungi kunda Abul

Fazl Bayhaqiyning asariga suyangan holda keyingi tarixchilar tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab noaniqlik va xatolarni to'g'rilash mumkin. Bayhaqiy asarining omon qolgan qismi Ma'sud podsholik qilgan davr tarixini yorituvchi eng nufuzli asardir. Unda Safforiylar va Somoniylar davlatlari tarixiga oid, turkman urug'larining saljuqiylar qo'li ostiga birlashuviga oid qiziqarli ko'plab ma'lumotlar bor. Bayhaqiyning asari ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari tarixini tiklash uchun katta ahamiyatga ega. Muallifning G'aznaviylarning O'rta Osiyo xonlari, Xorazm, Turkmaniston bilan munosabatlari xususidagi ma'lumotlari ayniqsa muhimdir². Ibn Fundukning ma'lumotlaridan, shuningdek muallifning o'zi tarixiy asariga qanday nom berganini ham aniqlash qiyin. Ibn Funduq uni «Tarixi O'li Mahmud», «Mahmud sulolasi tarixi» deb atagan. Biroq bu kitobning asosiy nomi emas. A. K. Arende ruscha nashr etgan A. Bayhaqiyning «Tarixi Ma'sudiy» asari sharqshunoslar o'rtasida ko'proq «Tarixi Bayhaqiy» nomi bilan mashhur[5]. Ibn Fundukning aytishicha ham Bayhaqiyning asari 30 jilddan iborat ekan. Shundan beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi jildlarning oxiri va o'ninchi jildning bosh qismi saqlangan. Ular Ma'sud podshohligi davrini deyarli qamrab oladi. «Men bir necha o'n taboqlarga jam bo'ladigan ellik yillik tarixni bitayoturman» degan edi muallif. Boshqa paytda muallif: «Mahmud Varroq» bitishni bas qildi, men shu davrdan (to'rt yuz) to'qqizinchi yildan «Tarix»imni yoza boshladim degandi[8]. Shunday qilib, Bayhaqiyning o'zi nechta asarini g'aznaviylar asoschisi Sabuktegindan emas, balki 409 (1019-1020) yildan, ya'ni Sulton Mahmud hukmronligining 21-yilidan boshlab yoza boshlaganining sababini bayon qilgan., Chunki, ungacha bo'lgan davrni ikki tarixchi, Mahmudning saroy tarixchisi Abu Nasr Muhammad Utbiy «Kitobu-l-Yaminiy» asarida 409-411-yillargacha bo'lgan voqealarni bayon qilgan. Ikkinchisi, aftidan, yuqorida tilga olingan Mahmud Varroq. U «bir necha ming yilliklar tarixini yozgan» va 409-yilga kelib, o'z qalamini «tashlagan», buning oqibatida Abul Fazl o'z «Tarix»ini yoza boshlagan. Demak, muallif «Ma'sud tarixi»,ni 1056-yil 10-iyulda yoki 1059-yilning aprelida boshlangan deydi. A. K. Arendsning hisobicha, u hozirgi hisobda 11 bosma taboq asar yozishga ulgurgan. 1063-yillarda ham u yozayotgani ma'lum bo'lsa-da, asarni qachon tugatgani ma'lum emas. Bundan tashqari, Bayhaqiyning aytishicha, u o'rta fors tilidan ibn Muqaffa tarjima qilgan «Xuvot al-namog'» va «Kutub siyar al muluk Ajam» («Eron shohlari hasti haqidagi kitob») asarlaridan foydalangan[7]. A. Arendsning «Tarixi Bayhaqiy» asarining muallif matni tarixini jonlashtirish va uning rivoji bosqichlarini aniqlash hozir zarur ma'lumotlar yo'qligi bois, mumkin emas» degan so'zlari to'g'ridir. Aftidan, asarning etishmayotgan jildlari kitob boyliklarimizga katta zarar keltirgan mo'g'ullar bosqini davrida yo'qolgan. Bu yo'qolgan qismlardan parchalar mo'g'ullardan qochib O'rta Osiyodan shimoli-g'arbiy Hindistonga ketib qolgan Muhammad Avfiyning «Javome'u-l-hikoyot» kitobida ko'proq saqlanib qolgan. A. Arendsning aytishicha, bu asarning bizning davrimizda sharqshunoslar o'rganayotgan eng qadimgi qo'lyozmalari XVII asrga mansubdir. Sharqshunos Ch. R'yo Britaniya muzeyidagi XVI asr qo'lyozmalari sanalarini aniqlamoqda. «Tarixi Bayhaqiy» ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Ularning bir qismi Yevropaning turli kutubxonalarida, Eron, Turkiya, Misr va Hindistonda, ba'zilar xususiy-shaxsiy

kutubxonalarda saqlanmoqda. Uch nusxasi Leningrada saqlanmoqda. Ingliz sharqshunosi V. Morle bu kitobni birinchi bo'lib Kal'kuttada 1869 yili nashrdan chiqardi. Kitob Bengaliyaning Osiyo jamiyati seriyasida bosildi. Oradan yigirma besh yil o'tgach, «Ma'sud tarixi» litografiya usuli bilan Tehronda nashr etildi. Uni eronlik olim Adiy Peshavoriy nashr qildi. SHundan keyin Bayhaqiyning asarini «unutib» qo'yishdi. Faqat V.Bartol'dgina «Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida» asarida undan keng foydalandi. Keyin yana jimlik cho'kdi. 1319-1941-yilga kelibgina adabiyotshunos va yozuvchi Sayd Nafisiy uning birinchi jildini Tehronda nashr ettirdi. Ikkinchi jild 1325-1947-yilda, oxirgi jild esa 1332-1954-yili bosmadan chiqdi. Sayd Nafisiyning bu nashri oldingilardan sifatliroq bo'lsa-da, biroq u Morlening inglizcha nashriga asoslangan. Ayni vaqtda u Peshavoriy nashr etgan ikki nusxadan ham foydalangan. Bu davrga kelib, ya'ni 1945-yilda Tehron dorilfununi professorlari G'ani va Fayoz «Tarixi Bayhaqiy» ning matnini bosib chiqarishdi. Bu nashr ancha ishonchlidir[7].

V. Bartol'd asarlarini hisobga olmaganda, to 1962-yilgacha «Tarixi Bayhaqiy» to'liq Yevropa tillariga o'girilmagan. Shu bois A.Arende ruschaga ugirishda G'ani va Fayozning 1945-yilgi nashri matniga asoslandi. Ikkinchi nashrda yana o'zgarishlar bo'ldi. Unda kirish qismiga qo'shimchalar kiritildi, ba'zi joylar, ayniqsa, iboralar tarjimasini aniqlashtirildi. Qo'shimchalarda yo'qolgan jildlarga tegishli qismlarning yangi topilganlari bor. Bundan tashqari, yana Bayhaqiy asarida tasvirlangan tarixiy voqealarga aloqador «Maqomati xoja Abu Nasri Mishkan» asaridan ham shu voqealarni to'ldiruvchi ayrim parchalar ikkinchi nashrga kiritildi. Movarounnahrning bu davr adabiy hayoti bir qancha iste'dodli shoir va adabiyotshunoslar ijodidan ham bahramand bo'ldi. Asiridin Axsikatiy (1172 yilda vafot etgan), So'zoniy Samarqandiy (1173 yilda vafot etgan), Rashiddin Samarqandiy, Asadiy Tusiy, Nosir Xusrav, Umar Hayyom, Faxriddin Gurgoniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Anvari, Ma'sud Sa'd Salmon, Muizziy, Sobir Termiziy va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda tasavvuf ta'limoti keng tarqaldi. So'fiylikning nazariyotchilari faylasuf Muhammad G'azzoliy va uning mistik goyibot ruhdagi, ilohiy ishqning alohida so'fiylik yo'nalishini yaratgan ukasi Ahmad G'azzoliy hamda so'fiylik yo'nalishidagi mashhur shoirlar, Abdulloh Ansoriy Xiraviy (1006-1077 y), Abdulmajid Sanoniy (1050-1131 yy), Fariddin Attor (1142-1220 y) lar edilar. XI asrda tarixshunoslik rivojlanishini ham alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ular jumlasiga Abu Nasr Utbiyning (Mahmud G'aznaviyning saroy tarixchilaridan biri) «Tarixi Yaminiy» asarini kiritish mumkin. Utbiy Mahmud G'aznaviyning ko'klarga ko'tarib maqtab, otasi Sabuqteginning hayotidan ko'plab voqealar keltiradi, ularni qiyoslab, o'sha davr tarixiy voqealarini tasvirlaydi. G'aznaviylar davrining eng yirik tarixchilaridan biri Abu Sayd G'ardiziy hisoblanadi. U «Zayn-ul-axbor» («Xabarlar ziynati») tarixiy-didaktik asarning muallifidir. U 1048-1052-yillar orasida yozilgan. Gardiziy o'z davrining tarixchi va tarixshunosi sifatida shu asarida oldin o'tgan tarixchilarning asarlarini tahlil qiladi[3]. G'aznaviylar davlati ravnaq topgan davrda saroyda va shaharlarda buyuk olimlar yashab, ijod etganlar (Beruniy, Utbiy, Abulfazl Bayhaqiy, Gardiziy, Firdavsiy va boshqalar) G'aznaviylar davlati Mahmud G'aznaviy vafotidan keyin zaiflana boshladi. Mas'ud I davri (1030-1041)da Xorazm qo'ldan ketdi, Movarounnahrning Amudaryo uyqori oqimidagi erlarni qoraxoniylar tortib oldi. XII asr 70-yillarida g'uriylar g'aznaviylarni

Shimoliy Hindistonga siqib chiqardilar, Lahor ularning poytaxtiga aylandi. 1186-yili g'uriylar Lahorni ham bosib oldilar[1]. Saljuqiylar davlati (1038-1194) nomi ko'chmanchi turk-o'g'uz qabilasi boshlig'i Saljuq nomidan olingan. Saljuqiy turklar XI asr 30-yillarida harbiy xizmatlari evaziga Xurosonda g'aznaviylardan mulklar oladilar. Tarixchi olim Azamat Ziyoning «O'zbek davlatchiligi tarixi» nomli asarida ko'rsatilishicha saljuqiylar tarixshunosligi Sadr ad-din Ali Husayniyning «Zubdat at-tavarih», «Tarixi Salojoqa», «Rohat as-sudur» nomli asarlaridan boshlanadi. Eng yangi zamon tarixshunosligi S. Agadjanovning «Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XII вв» (M., 1969) asarlari bilan davom etishini ko'rsatadi. XI asr oxirlaridan boshlab, saljuqiylar davlati tanazzulga uchray boshladi. Chunki, birinchi salib uyrishlari natijasida saljuqiylar Kichik Osiyoning qirg'iq bo'yi hududlaridan ajradilar. O'zaro sulolaviy va ichki nizolar tufayli, To'g'rulbek avlodlarining ba'zilar mustuqil sultonliklar tuzib oldilar, natijada saljuqiylar davlati ikkiga bo'linib ketdi. Birinchi poytaxt Hamadon, ikkinchisi Marv bo'lib qoldi. Xorazmshoh Takash Marvni bosib oldi, hamadon poytaxti bo'lgan ko'hna sultonligi esa XII asrgacha hukm surdi³. A. Sagdullaev, B. Aminov, O. Mavlonov, N. Norqulov «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti⁴» asarida saljuqiylar haqida hech bir ma'lumotni keltirmaydilar. Shunday bo'lsada, Bo'ribov Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» asarida Saljuqiylar davlati haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

So'g'diylar va turkiy urug'lar aloqalarining kuchayishida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Janubiy Tangritog' viloyatlarida tashkil topgan musulmon turk davlati – Qoraxoniylar (927-1212) muhim o'rin tutadi. Qoraxoniylar davlati Yettisuv hududida Qarluq (756-940) davlati o'rnida tashkil topdi. Uning asoschisi Sotuq Bug'roxon (915-955) hisoblanadi. U 942-yili Bolosog'un hokimini mag'lub etib o'rniga o'zini hoqon deb atadi. Qoraxoniylar davlatiga ikki qabila –yag'mo –chigil qabilalari birlashdilar. Qoraxoniylar tarixshunosligi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'ati turk», Gardizning «Zayn ul-axbor» («Xabarlar ziynati») asarlari bilan boshlanadi. Keyinchalik bu yo'nalishdagi tarixnavislik Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. 1025-yili Samarqand yaqinda o'sha davrning ikki zo'r hukmdori Mahmud G'aznaviy bilan Qoraxoniy, iloqxon unvoniga ega Qodirxon o'rtasida shaxsiy uchrashuv bo'ldi. XI asr fors tarixchisi Gardiziy «Zayn ul-axbor» («Xabarlar ziynati») asarida Qodirxonning sodda va qovushmagan qo'polligi, katta uchrashuv va saroy mulozamatlariga ko'nikmaganligi, diplomatiyaning sirlaridan bexabar kishi bo'lganini yozadi. Bu ittifoq keyinroq Mahmud G'aznaviyning butun O'rta Osiyoga hukmronligi bilan tugadi. XI asr 60-70 yillarida qoraxoniylar saljuqiylar bilan to'qnashib, zaiflashib qoladi. 1212-yili Muhammad Xorazmshoh qoraxoniylar davlatini butunlay tugatdi.

Xulosa. XI–XIII asrlar O'rta Osiyo tarixshunosligi taraqqiyotida muhim burilish davri bo'lib, bu davrda tarixiy bilimlar tizimli shakllana boshladi va ilmiy asoslangan tarix yozish an'analari rivoj topdi. Ayniqsa, Somoniylar davlati, Qoraxoniylar davlati, G'aznaviylar davlati hamda Xorazmshohlar davlati davrida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixshunoslik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mazkur davrda yashab ijod qilgan Abul Fazl Bayhaqiy, Abu Nasr Utbiy, Abu Sa'id Gardiziy kabi olimlar tarixni faqat voqealar

ketma-ketligi sifatida emas, balki sabab-oqibat munosabatlari asosida yoritishga harakat qildilar. Ularning asarlarida tarixiy haqiqatga intilish, voqealarni keng qamrovda tahlil qilish va shaxs omiliga e'tibor qaratish kabi yangi yondashuvlar shakllandi. Shuningdek, bu davr tarixshunosligida siyosiy hokimiyat, saroy muhitining ta'siri sezilarli bo'lsa-da, ilmiylik unsurlari ham kuchaya boshladi. Tarixchilar davlat boshqaruvi, diplomatiya, ijtimoiy qatlamlar va madaniy hayotni o'zaro bog'liq holda tasvirlashga intildilar. Bu esa tarixni kompleks o'rganish tamoyillarining yuzaga kelganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu davr tarixshunosligi keyingi asrlar ilmiy tafakkuriga mustahkam poydevor yaratdi. Bugungi zamonaviy tarix fani uchun ham XI–XIII asrlar merosi nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, u milliy tarixshunoslikni yanada chuqurroq rivojlantirishda muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1993. – 120 b.
2. Абул-Фазл Байхакий. История Маъсуда (1030–1041) / пер. с перс. В. Арендса. – 2-е изд. – М., 1996. – 350 с.
3. Axmedov B. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – T.: Cho'lpon, 2003. – 160 b.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000. – 320 b.
5. Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – T.: Akademiya, 2000. – 280 b.
6. Bo'ribov Ahmedov. Tarixdan saboqlar. – T., 1994. – 450 b.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T., 1990. – 200 b

Rasulova Dildora Atayarovna, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, tadqiqotchisi E-mail: dildorarslv@gmail.com



PARALLEL KORPUSDA MOLIVAVIY-IQTISODIY ATAMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA TARJIMA XUSUSIYATLARI

<https://zenodo.org/records/19907026>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbekcha–inglizcha va inglizcha–o'zbekcha parallel korpus materiallari asosida moliyaviy-iqtisodiy atamalarning struktur-semantik va tarjima xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy-iqtisodiy terminlarning tuzilish modellari, semantik muvofiqligi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalar aniqlangan. Parallel matnlar tahlili kalkalash, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma, tavsifiy tarjima va funksional ekvivalentlik kabi tarjima strategiyalari ustunligini ko'rsatdi.